

Date: 17th June-2026

**MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI
YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI OSHIRISH**

R.Orziboyev

FarDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa darslarida zamonaviy texnologiyalar orqali yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirish haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В этой статье рассказывается о повышении идеологического иммунитета у молодежи с помощью современных технологий на уроках музыки.

Abstract: This article describes how to increase the ideological immunity of young people using modern technologies in music lessons.

Kalit so'zlar: Yoshlar, kitobxonlik, iste'dod, musiqa san'ati, ma'naviyat, estetik, axloqiy madaniyat.

Ключевые слова: Молодежь, чтение, талант, музыкальное искусство, духовность, эстетика, нравственная культура.

Keywords: Youth, reading, talent, musical art, spirituality, aesthetics, moral culture.

Yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarni shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki yurtboshimizning ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi yosh avlod bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan beshta muhim tashabbusning aynan birinchi tashabbusi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. [1]

Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'ribor qaratildi. Ushbu birinchi tashabbus san'at sohasida faoliyat olib borayotgan ustozlarga yanada mas'uliyat yuklaydi. Ya'ni o'z ustida ko'p izlanishga, auditoriyadagi ta'lim jarayonida innovatsion va pedagogik texnologiyalarni qo'llashga undaydi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. "Mafkuraviy immunitet" tushunchasini birinchi prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quydagicha ta'rif bergan. "Ma'lumki, har qanday kassalikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni muqaddas vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigon zamon bilan barobar qadam tashlaydigon insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning "davati" ham,



Date: 17th June-2026

axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi".

Demak yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ham musiqaning alohida o'rini borligini e'tirof etish o'rinlidir. Shu bilan birga oilada ijobiy muhitni yuzaga keltirishda ham musiqa muhim o'rin tutadi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, go'zal musiqa inson ongiga ijobiy ta'sir etar ekan, u nafaqat yoshlarning idrokiga, balki uning dunyoqarashining shakllanishiga ham ta'sir etadi, ma'naviy ozuqa beradi, kuy, qo'shiq eshitgan insonning ruhi orom oladi. Shu nuqtai nazardan musiqiy madaniyatning shaxs ma'naviy dunyoqarashini boyitishda zamonaviy pedfogik texnologiyalar orqali yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tadbiq etish dolzarbdir. Shu bois ham musiqaning yangilanib borishi va jarayonlarning davom etishi jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida yuz berayotgan islohotlarning uyg'un holda amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Bu, o'z navbatda, musiqa ma'naviy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida maxsus tadbiq etish zaruriyatni keltirib chiqaradi:

-“Musiqa”, “Mumtoz musiqa”, “Zamonaviy musiqa”ning yoshlarda mafkuraviy - immunitetni shakllantirishdagi mazmun-mohiyatini yoritish;

- musiqaning ma'naviy hayot bilan aloqadorligini tahlil qilish;

- yoshlarning ma'naviy-ruhiy poklanishi, milliy o'zlikni anglahida musiqaning ijtimoiy-tarbiyaviy ro'lini ochib berish kabilar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, xalqimiz ma'naviyatni yuksaltirish sog'lom avlodni tarbiyalash borasida qilinayotgan sa'y-harakatlar barchasi, bilimli, ma'rifatli va ongli insonni voyaga yetkazishga qaratilgani bilan ayniqsa e'tiborlidir. [3.34] O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishga olib keladi. Zamonaviy texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, mafkuraviy immunitetini oshirishga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Musiqiy ta'lim mazmuni umumiy madaniyatning rivojlanishiga va jamiyatning musiqa san'atiga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun musiqiy ta'lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, musiqa materiali, ta'lim usullari va shakllaridan to'g'ri foydalanish lozim. Musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosi o'rin tutadi. Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab, o'zga xalqlar musiqa madaniyati bilan tanishishi, ya'ni “ta'limda ummuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarining ustuvorligi”ga amal qilish musiqa o'qitishning muhim didaktik yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigon hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigon madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy idrokini rivojlantirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, mafkuraviy



Date: 17th June-2026

immunitetni shakllantirish va uni himoya qilishda milliy hamda zamonaviy musiqa san'ati muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH. M. Ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizm asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta tashabbus. 2019.
2. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent "Ma'naviyat". 2013.
3. Musurmonova O, Qarshiboyev M, Qo'chqorov R. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari". Toshkent "Ma'naviyat". 2015.
4. Qirg'izov I. "Musiqa o'qitishning nazariyasi va maktab repertuari" maruza matni. Farg'ona. 2018.
5. Orziboev, R. (2023). XITOY VA MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI QABILALARINING MUSIQIY MADANIYATI RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 220-226.
6. Orziboev, R. (2023). INNAVATSION METODLLAR ORQALI MUSIQA SAN'ATINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH. *Наука и инновация*, 1(9), 19-22.
7. Rustamjon, O. (2023). ANALYSIS OF MUSICAL WORKS OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN MUSIC CULTURE. *Uzbek Scholar Journal*, 16, 196-200.
8. Орзібоев, Р. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МУСИҚА МАДАНИЯТИГА ДОИР АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 452-456.
9. Орзібоев, Р. А., & Абдулмадатов, О. (2022). МОДАЛ ВА ТОНАЛ ГАРМОНИЯ ҲАҚИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 497-502.
10. Tokhtasinovich, I. U., & Abdumutalibovich, O. R. (2022). The Influence of Music Culture on The Peoples of Central Asia in The Development of Uzbek Music Culture. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 70-73.

